Xulosa. Sun'iy intellektning asosiy muammolarini tahlil qilishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan holda, biz quyidagi vazifalarni hal qildik: Zamonaviy dunyoda sun'iy intellektning ahamiyatini shakllantirish sun'iy intellektning mavjud muammolarini belgilab berdi, raqamli iqtisodiyotda insoniyat uchun sun'iy intellektni rivojlantirishning o'rni va istiqbollari ochib berdi. Tadqiqotlar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, sun'iy intellekt insoniyatning global rivojlanish istiqboliga ega bo'lgan muhim ilmiy kashfiyotidir. Shu bilan birga, sun'iy intellektdan foydalanish va kelajakda rivojlanishi bilan bog'liq bir qator muammolar hali ham mavjud.

Mavjud xavf hech kimni befarq qoldirmaydi. Olimlar mavjud qarama-qarshiliklarni bartaraf etish yo'llari va bir qator savollarga javob izlash bilan faol shug'ullanmoqdalar. Kelajakda, agar insoniyat hali ham o'z hayotini yashay oladigan to'liq huquqli sun'iy intellektni yaratishga muvaffaq bo'lsa, ehtimol hisoblash kuchining ustunligi, shuningdek, barcha elektronikaga potentsial kirish tufayli dunyo betartiblikka tushib qolishi mumkin va insoniyat yo'qoladi, shuning uchun bu masala bo'yicha murojaat doimiy bo'lishi kerak. Robot odamga zarar keltirmaydi, faqat unga yordam beradi, deb umid qilish kerak.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kolesnikova G.I. Sun'iy intellekt: muammolar va istiqbollari [Elektron resurs]. URL: <https://videonauka.ru/stati/44-novye-tehnologii/190> (kirish 12/08/2019)
2. Shkodnik V. Sun'iy intellektni rivojlantirish istiqbollari [Elektron resurs]. URL: <https://trashbox.ru/topics/120627/perspektivy-razvitiya-iskusstvennogo-intellekta> (kirish 12/08/2019)
3. Xoffman K. Sun'iy intellekt muammosi: mashinalar o'rganishi mumkin, ammo tushuna olmaydi [Elektron resurs]. URL: <https://www.kv.by/post/1056045-problema-iskusstvennogo-intellekta-mashiny-mogut-nauchitsya-no-ne-mogut-ponimat> (kirish 08.12.2019)

PEDAGOGIKA FANINING ILMIY-TADQIQOT METODLARIDAN FOYDALANISH

Imomqulov Rasul Raxmonovich

Termiz davlat univerteti ijtimoiy fanlar

fakulteti ijtimoiy ish kafedrası

Pedagogika fanlar nomzodi dosent

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada pedagogika fani va uning ilmiy-tadqiqot metodlari va ularning turlari haqida soʻz yuritiladi.

***Tayanch soʻzlar:** pedagogika, ilmiy-tadqiqot metodlar, tadqiqot, jarayon, mazmun, shaxs*

Har qanday fan oʻzining ilmiy-tadqiqot metodlariga ega. Bu metodlari orqali u oʻz mazmunini boyitib, yangilab boradi. Hayotda va obyektiv dunyoni bilish nazariyasida nimani oʻrgatish va qanday oʻrgatish kerak, kimni qanday tarbiyalash lozim degan masalalar mavjud boʻlib, ular oʻzaro bogʻliqdir. Pedagogika oʻz mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud pedagogik hodisa hamda jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan oʻrganadi.

Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari qanchalik mukammal, aqlga muvofiq, toʻgʻri tanlansa taʼlim-tarbiya mazmuni yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanadi, pedagogika fani ham boyib boradi. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yoʻnalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, obyekt va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir. Zamonaviy sharoitda, pedagogik yoʻnalishda tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Talim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
6. Test metodi.
7. Pedagogik tahlil metodi.
8. Bolalar ijodini o'rganish metodi.
9. Pedagogik tajriba metodi.
10. Matematik-statistik metod

Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo'llash jarayonida ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muarnmo holati aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi. Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo'l qo'yimaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

- 1) kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
- 2) kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;
- 3) kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- 4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish;
- 5) xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

Suhbat metodi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat

maqsadga muvofiq holda indiviudal, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon bo'lishga erishish muhimdir. Anketa metodi (fransuzcha - tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko'p hollarda, yozma ravishda olinadi. O'rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo'ladi:

1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo'q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniqarli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar) Intervyu metodi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta'minlaydi. Intervyu respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o'tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi. Ta'lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni hamda «Kadriar tayyorlash milliy dasturi» talablarining ta'lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o'rganish, bu boradagi faollik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va ta'lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo'llaniladi. Ta'lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: o'quv mashg'ulotlarining jadvali, o'quv dasturi, guruh (yoki sinf) jumallari, o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig'ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash qarorlari, ta'lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasi, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar,

ta'lim muassasasi jihozlari (o'quv partalari, stol stullar, yumshoq inebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar.

Test metodi.

Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test metodini qo'llashda aniqlanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalami turkum asosida berilishiga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo'yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejallishi bilan tavsiflanadi. Biroq metod ayrim kamchilikdan ham holi emas. Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlaridan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o'z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyatiga ega emas. Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'nalishlarda o'rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi. Bolalar ijodini o'rganish metodi. Mazkur metod o'quvchilarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda o'quvchilarning ijodiy ishlari - kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma'lum o'quvchiga xos bo'lgan individual imkomiyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik tadqiqot metodlari o'qituvchining pedagogik faoliyatini oshirishga qaratilgan tadqiqot vazifalarining aniqligi, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, bolalar psixologiyasi qonuniyatlarini hisobga olish kabi xususiyatlarini yaxshilab, uning darajasini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. X.Xodjayeov. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. -T."Sano standart" nashiriyoti. 2017.
2. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).
3. Davrenov, J., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA XVI-XVIII ASRLARDA YAPONIYA DAVLATI TARIXINI AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).
4. Narmatov, D., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA ISPANIYA XV-XVII ASRLARDAGI TARIXI. Scientific progress, 1(6).
5. Elguzarov, B. B. O. G. L., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA MITANNI DAVLATCHILIGINING O'RNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6), 616-619.
6. Erkinov, A. S. O., & Haydarov, S. (2021). YUNON-BAQTRYA PODSHOLIGINING IJTIMOYI TUZIMI, XO'JALIGI VA MADANIYATI. Scientific progress, 1(6), 620-622.
7. Nematov, M. D. O., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA SHUMER-AKKAD DAVLATCHILIGINING O'RNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).
8. Ermatov, F., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA 1870-1914 YILLARDA ANGLIYANING O'RGANILISHI. Scientific progress, 1(6).
9. Do'stmurodov, S., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA XVIXVIII ASRLARDA HINDISTONNI O'RGANISH. Scientific progress, 1(6).
10. Mengboyev, S. N., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA URARTU PODSHOLIGINING O'RNI. Scientific progress, 1(6).
11. Asqarov, N. S. O., & Haydarov, S. (2021). ARAB XALIFALIGINING POYTAXTI BAG'DODNING TANAZZULGA YUZ TUTISHI. Scientific progress, 1(6).

12. Ҳайдаров, С.А., (2022). Заҳриддин Муҳаммад Бобур: бир қўлда мўйқаламу, бир қўлда тож. Scientific progress, 3(3).

13. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/pedagogic-tadqiqotfunksiyalari-va-metodlari>

14. <https://new.tdpu.uz/news/1647>

YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA MA’NAVIY YANGILANISH MUAMMOLARI

Aminjonov Shahzod G‘ani o‘g‘li

G‘ijduvon tuman 1-son kasb-hunar maktabi o‘qituvchisi

aminjonovshahzod2018@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada bugungi kunda O‘zbekiston taraqqiyotining yangi davri va bu rivojlangan yangi ma’naviy makonni shakllantirishni taqozo qilishi yoritilgan. Yangi O‘zbekiston strategiyasi bu boradagi ishlarning huquqiy va asosiy poydevori bo‘lib xizmat qilishi e’tiborga olingan.

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, taraqqiyot strategiyasi, ma’naviy islohotlar, milliy g‘oya, mafkuraviy jarayonlar*

ANNOTATION

The article examines nowadays new era of Uzbekistan’s development and the need to create a new developed spiritual space. It was noted that the strategy of New Uzbekistan serves as the legal and main foundation of work in this regard.

Key words: *New Uzbekistan, development strategy, spiritual development, national idea processes*

KIRISH

Maqolada Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ma’naviy yangilanish muammolari keltirib o‘tilgan. Ilmiy maqolada “Inson qadri uchun” tamoyiliga asoslangan ustuvor yo‘nalishdan iborat Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi va ma’naviy yangilanishlar yoritib berilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu maqolada muhtaram Prezidentimizning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asaridan foydalanilgan. Asarda Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessansni qurish bo‘yicha qilinayotgan ishlar va milliy taraqqiyot istiqbollari haqida fikr yuritiladi.

Bunda xalqimizning faravonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta‘minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari belgilandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yangi O‘zbekiston strategiyasi har birimizdan yangicha tafakkur uslublari va zamonaviy dunyoqarash tamoyillarini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratishimizni taqozo etmoqda. Shu bilan birga, jamiyat hayoti va davlat qurilishi takomillashib, hayotimiz va unga munosabatimiz o‘zgarib borayotgani ham bu boradagi tasavvurlarimiz yangilanishining ma‘naviy mezoniga aylanmoqda.

Strategiyadagi inson qadrini yuksaltirish, uning haq-huquqlarini himoyalash, orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish borasida amalga oshirilishi ko‘zda tutilayotgan ustuvor tamoyillar va dolzarb vazifalar esa bu yo‘nalishda ham ong va tasavvurlarimizni o‘zgartirishni, bir so‘z bilan aytganda, butun jamiyatimizning ma‘naviy yangilanishini zaruratga aylantirdi. Ushbu strategiya ana shu yo‘lda fuqarolarni birlashtiradi, yakdil va hamfikir bo‘lishlariga xizmat qiladi. Jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlarini qat‘iy belgilab olib, kuch va imkoniyatlarni jamlash, qayd etilgan ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha taraqqiyotni ta‘minlash uning ma‘no-mazmunini tashkil etdi.

XULOSA

Milliy g‘oya paradigmasi asosida milliy masalani shakllantirish va hal qilish modelini ishlab chiqish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Shu o‘rinda ta‘kidlash kerakki, milliy g‘oyani tahlil qilish va uni muvaffaqiyatli ishlashi uchun xalq turmush tarzining ma‘naviy-axloqiy mezonlarini hisobga olganda holda ish tutish muhim

ahamiyatga ega. Aynan taraqqiyot strategiyasida milliy g'oyani milliy miqyosdagi g'oyalar majmuasi sifatida tushunish va zamonaviy siyosiy jarayonda uning roli va ahamiyatini o'rganishda ustuvor ahamiyat kasb etdi.

XXI asr insoniyat tarixida yangi davrni boshlab berdi. Bashariyat taqdirida inson va jamiyatni ozod etishning yangi bosqichi, yalpi yangilanishlar jarayoni amal qila boshladi. Bunday tarixiy o'zgarishlar dunyo iqtisodiy, ma'naviy hamda mafkuraviy jarayonlarining keng miqyosli yangilanishlar pallasiga kirganligining ifodasidir.

Umumjahoniy yangilanishlar jarayoni avval muayyan mamlakat, keyin bir guruh davlatlar, oxir-oqibatda barcha mamlakatlar taqdiriga, jamiyatlar va jamoalar, alohida insonlar hayotiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsata boshladi. Dunyo yangilanishlari jarayoniga har bir davlat o'z taraqqiyot ko'lami, ilmiy-ma'rifiy va ma'naviy saviyasi, kamoloti darajasidan kelib chiqqan holda qo'shila boshladi.

Yangilanayotgan O'zbekiston jahon hamjamiyatida oqimida o'zining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-mafkuraviy yangilanishlar dasturini ishlab chiqqan mamlakat sifatida o'ziga xos va o'ziga mos mavqe egallab bormoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy hayotni maqsadli takomillashtirish, bu muhitni umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg'unligi ruhida rivojlantirish, "Islohotlar xalq uchun" tamoyili asosida mamlakatimizda yangilanishlar jarayoni boshlanishiga nazariy poydevor qo'yildi. Davlat tizimi, jamiyat qurilishi va shaxs ma'naviy dunyosini tubdan isloh qilish yangilangan davlat, o'zgargan jamiyat va komil shaxsni yaratish imkonini bermoqda. O'zbekiston yangilanishlar jarayonini ikki o'zaro uzviy bog'langan yo'nalishlarda amalga oshirishga kirishdi, Birinchisi, mamlakatning ichki dunyosida, yani iqtisodiyog, ma'naviyat, siyosat, turmush tarzida amalga oshiriladigan yangilanishlar majmuidan iborat bo'lsa, ikkinchi yo'nalish, xalqaro hamjamiyatda Yangi O'zbekiston ma'naviy qiyofasini, ijtimoiy muhit manzarasini takomillashtirish, ya'ni qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi ziddiyatlarni barqarorlashtirish, hamjihatlik, tinchlik madaniyatiga o'tish, insoniyatga umumiy xavf tug'diruvchi terrorizm, narkobiznes, ekstremizmga qarshi xalqaro tashkilot tuzilmalari bilan hamkorlik va boshqa faoliyatlar majmuidan tashkil topadi.

O‘zbekistonda ma’naviy-mafkuraviy islohotlar olib borish, milliy qadriyatlarni tiklash, yangi avlodni tarbiyalash konsepsiyasi amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” – mamlakatimizda “Yangi O‘zbekiston”, “Uchinchi Renesans poydevori” g‘oyasini amalga oshirish, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilish va milliy g‘oyani rivojlantirish omili ekanligidan dalolat beradi. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z ma’ruzasida quyidagi g‘oyani oldinga surdi: “Albatta, biz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash bo‘yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Ammo xolisona tan olib aytadigan bo‘lsak, bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatda, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun qanday keskin kurash borayotganini, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, «ommaviy madaniyat» kabi tahdidlar kuchayayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum ham susaytirmasdan, aksincha, ularni yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur”[1]. Davlat rahbarining ushbu g‘oyaviy qarashlari O‘zbekiston davlatining ma’naviy-ma’rifiy siyosat sohasidagi kelgusidagi ustuvor yo‘nalishini aniq belgilab berdi. Natijada 2017 yil 28 iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorliini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida»gi PQ-3160-sonli, 2019 yil 3 mayda “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (PQ-4307-son)[3] qarorlari hamda «O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoyishi qabul qilindi.

Ushbu strategiya ana shu yo‘lda fuqarolarni birlashtiradi, yakdil va hamfikir bo‘lishlariga xizmat qiladi. Jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlarini qat’iy belgilab olib, kuch va imkoniyatlarni jamlash, qayd etilgan ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha taraqqiyotni ta’minlash uning ma’no-mazmunini tashkil etadi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi davrida strategik rivojlanish bilan bog‘liq yo‘nalishlar Yangi O‘zbekiston strategiyasida quyidagicha o‘z aksini topgan:

- erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, inson qadr-qimmatini va uning qonuniy manfaatlarini ta‘minlash;
- adolat va qonun ustuvorligini mustahkamlash, inson qadr-qimmatini ta‘minlash;
- milliy iqtisodiyotni rivojlantirish;
- adolatli ijtimoiy siyosat yuritish va inson kapitalini rivojlantirish;
- ma‘naviy va ma‘rifiy sohalarda islohotlarni amalga oshirish;
- global muammolarning milliy va mintaqaviy darajadagi yechimlarini topish;
- tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlardan iborat.

Ma‘naviy hayotni yangilash, mafkuraviy tamoyillarni aniqlab olishda “inson – jamiyat – davlat” omili hozirgi davr zaruratini aks ettirmoqda.

Bu jihatdan Yangi O‘zbekiston strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari, asosiy tamoyillari va mezonlarini quyidagilardan iboratdir:

birinchidan, Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonining dasturilamali bo‘lgan taraqqiyot strategiyasini to‘liq amalga oshirish jamiyat a‘zolarining islohotlarga daxldorlik tuyg‘usi, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga xizmat qiladi;

ikkinchidan, mamlakatda islohotlar va yangilanishlarning keng ko‘lamda olib borilishi, raqobatbardosh va ochiq pragmatik makonni yaratish, barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohang rivojlanishni ta‘minlash kabi paradigmalariga asoslanadigan Yangi O‘zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish g‘oyasi millatni jipslashtiradi;

uchinchidan, jamiyat qurilishi va davlat boshqaruvining yangilanishi, inson huquq va erkinliklarining ta‘minlanishi tamoyillariga amal qilinayotganligini ko‘rsatadi;

to‘rtinchidan, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi inson, uning qadri, ehtiyojlari va manfaatlariga qaratilgani, ularning asl qadriyatga aylanayotgani o‘zgarishlar hamda yangilanishlarning tub mohiyatini ifodalaydi;

bashinchidan, mulk huquqiga egalikning yangi shakli vujudga kelayotganligi, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini uyg'unligi tamoyili e'tirof etilayotgan kuchli fuqarolik jamiyati, demokratik boshqaruv, raqibatbardosh bozor iqtisodiyoti mamlakat va xalq ravnaqi asosiga aylanmoqda;

Strategiyadagi inson qadrini yuksaltirish, uning haq-huquqlarini himoyalash, orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish borasida amalga oshirilishi ko'zda tutilayotgan ustuvor tamoyillar va dolzarb vazifalar esa bu yo'nalishda ham ong va tasavvurlarimizni o'zgartirishni, bir so'z bilan aytganda, butun jamiyatimizning ma'naviy yangilanishini zaruratga aylantirdi.

Bu borada Prezidentimiz tomonidan yaratilgan nazariy-metodologik asoslarga tayangan holda, ushbu yo'nalishda ro'y berayotgan jarayonlarni chuqur tahlil qilish va ba'zida uchrayotgan muammolarni zudlik bilan yechishning samarali yo'llari hamda usullaridan foydalanishni davrning o'zi taqozo etomqda.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" "O'zbekiston" Toshkent- 2017
2. Mirziyoyev Sh.M "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" "O'zbekiston" Toshkent- 2022
- 3.1 <https://lex.uz/docs/-4071203>; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.07.2017 yildagi PQ-3160-son
- 3.2 <https://lex.uz/docs/-4320700> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 03.05.2019 yildagi PQ-4307-son

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ ГЕОЛОГИИ

Уралов Лазиз Мамадиярович

Ассистент филиала Казанского (Приволжского)
федерального университета в городе Джизаке.

LMUralov@kpfu.ru

АННОТАЦИЯ

Мультимедийные технологии могут быть использованы для анонсирования темы (кратко изложены ключевые моменты), как сопровождение объяснения учителя, как информационно обучающее пособие и для контроля знаний.

Ключевые слова: *Лаконичность, фото, видео, графики, анимации, мультимедийные технологии.*

ANNOTATION

Multimedia technologies can be used to announce a topic (key points are briefly outlined), to accompany a teacher's explanation, as an informational teaching aid, and to control knowledge.

Мультимедиа - это представление объектов и процессов не традиционным текстовым описанием, но с помощью фото, видео, графики, анимации, звука, то есть во всех известных сегодня формах.

Здесь мы имеем два основных преимущества – качественное и количественное.

Качественно новые возможности очевидны, если сравнить словесные описания с непосредственным аудиовизуальным представлением.

Количественные преимущества выражаются в том, что мультимедиа среда много выше по информационной плотности.

Действительно, одна страница текста, как известно, содержит около 2 Кбайт информации. Преподаватель произносит этот текст примерно в течении 1-2 минут. За ту же минуту полноэкранное видео приносит порядка 1,2 Гбайт информации. Вот почему «лучше один раз увидеть, чем миллион раз услышать».

Методика использования мультимедиа технологий предполагает:

-совершенствование системы управления обучением на различных этапах урока;

-усиление мотивации учения;

-улучшение качества обучения и воспитания, что повысит информационную культуру учащихся;

-повышение уровня подготовки учащихся в области современных информационных технологий;

Мультимедийные уроки помогают решить следующие дидактические задачи:

-усвоить базовые знания по предмету;

-систематизировать усвоенные знания;

-сформировать навыки самоконтроля;

-сформировать мотивацию к мультимедийным технологиям в частности;

-оказать учебно-методическую помощь учащимся в самостоятельной работе над учебным материалом;

Мультимедийная презентация, таким образом, наиболее оптимально и эффективно соответствует цели урока:

Образовательный аспект: восприятие студентами учебного материала, осмысливание связей и отношений в объектах изучения.

Развивающий аспект: развитие познавательного интереса у студентов, умения обобщать, анализировать, сравнивать, активизация творческой деятельности студентов.

Воспитательный аспект: воспитание научного мировоззрения, умения четко организовать самостоятельную и групповую работу, воспитание чувства товарищества, взаимопомощи.

Мультимедийные технологии могут быть использованы:

- Для анонсирования темы (кратко изложены ключевые моменты);
- Как сопровождение объяснения учителя;
- Как информационно-обучающее пособие;
- Для контроля знаний;

Варианты использования мультимедийных технологий в обучении геологии:

- Защита исследовательских и проектных работ;
- Картографические проекции;
- Электронные учебники;
- Внеурочная работа;
- Презентации к урокам;
- Интеллектуальные игры;
- Творческие работы студентов;

Основные направления применения мультимедиа-учебников в обучении геологии:

-организация познавательной деятельности студентов на уроке: передача учебной информации, мотивация обучения, показ, сопоставление процессов и явлений, демонстрация наглядных материалов;

-проверка результатов обучения: практика, тесты;

-организация самостоятельной работы студентов: самостоятельное приобретение знаний и умений, подготовка докладов и сообщений, осуществление дифференцированного подхода, углубленное изучение геологии;

Можно выделить следующие особенности данной технологии:

-качество изображения, выполняемого мелом на доске, не выдерживает никакого сравнения с аккуратным, ярким, чётким и цветным изображением на экране;

-с помощью доски и мела затруднительно и нелепо объяснить работу с различными приложениями;

-в случаях выявления в слайдах пособия недостатков или ошибок, можно сравнительно легко устранить дефекты;

В зависимости от подготовленности студентов, используя в презентациях гиперссылки, один и тот же материал можно объяснить и очень подробно, и рассматривая только базовые вопросы темы. Темп и объём излагаемого материала, определяется по ходу урока. Во время демонстрации презентации, даже с применением проектора, рабочее место студентов достаточно хорошо освещено.

-Повышение уровня использования наглядности на уроке;

-Повышение производительности урока;

-Установление меж предметных связей с другими предметами;

Преподаватель создающий, или использующий информационные технологии вынужден обращать огромное внимание на логику подачи учебного материала, что положительным образом сказывается на уровне знаний учащихся.

Рекомендации по разработке мультимедийных презентаций:

Мультимедийные программные средства обладают большими возможностями в отображении информации, значительно отличающимися от привычных, и оказывают непосредственное влияние на мотивацию обучаемых, скорость восприятия материала, утомляемость и таким образом на эффективность учебного процесса в целом.

На этапе создания мультимедийной презентации необходимо учитывать следующие моменты:

- Психологические особенности студентов данного курса;
- Цели и результаты обучения;
- Структуру познавательного пространства;
- Местоположение студентов;
- Выбор наиболее эффективных элементов мультимедийных технологий для решения конкретных задач конкретного урока;

При создании слайдов необходимо учесть ряд основных требований:

Слайд должен содержать минимально возможное количество слов.

Для надписей и заголовков следует употреблять четкий крупный шрифт, ограничить использование просто текста. Лаконичность — одно из исходных требований при разработке учебных программ.

Предпочтительнее выносить на слайд предложения, определения, слова, термины, которые учащиеся будут записывать в тетради, прочитывать их вслух во время демонстрации презентации.

Размер букв, цифр, знаков, их контрастность определяется необходимостью их четкого рассмотрения с последнего ряда парт.

На пути внедрения этих технологий возникают проблемы:

-отсутствие в некоторых ВУЗах организованных условий с максимально свободным доступом к мультимедийным технологиям;

-нет заинтересованности преподавателей - предметников в проведении уроков, связанных с применением в учебном процессе электронных носителей информации, из-за отсутствия поддержки (материальной, организационной, методической и пр.);

-использовать мультимедийные технологии с достаточно жесткой классно-урочной системой.

По мнению многих преподавателей мультимедийные технологии нужно развивать в учебных заведениях. Для этого нужна поддержка как материальная, так и организационная со стороны руководства учебных заведений.

RAQOBAT QONUNCHILIGI BO‘YICHA DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHDA RAQOBATGA ZID HARAKATLARNI OLDINI OLISHNING HUQUQIY MOHIYATI

Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti tyutori

E-mail: ixtiyormahmarahimov1710@gmail.com

ANNOTATSIYA

Davlat xaridlarining asosiy tamoyillari — ochiqlik va shaffoflik, raqobat, xolislik va korrupsiyaning oldini olish hisoblanadi. Ammo hozirgi kunda davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida ba’zi qonunbuzarlik holatlari ham uchrab turmoqda. Jumladan, raqobatga zid ravishda tuzilgan kartel kelishuvlari tovar yoki moliya bozorlarida raqobatni cheklaydigan, uning ildizlariga bolta uradigan va sezilarli ravishda raqobatni zaiflashtiradigan bitimlar hisoblanadi. Tender savdolarida raqobatga qarshi harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining hal qiluvchi jihati bo‘lib, halol raqobatni ta‘minlash hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda tadbirkorlik subyektlarining manfaatlarini himoya qiladi. Ushbu maqolada davlat xaridlari sohasidagi qonunbuzilish holatlarini aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan huquqiy choralarni ko‘rish masalalari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: tender, gorizontal, vertikal, javobgarlikdan ozod qilish, kartel kelishuvlari, raqobat illuziyasi, til biriktirish, yozma, og‘zaki, tadbirkorlik subyektlari, moliyaviy sanksiyalar.

LEGAL ESSENCE OF PREVENTING ANTI-COMPETITIVE ACTIONS IN PUBLIC PROCUREMENT ACCORDING TO COMPETITION LAW

ABSTRACT

The main principles of public procurement are openness and transparency, competition, impartiality and prevention of corruption. However, there are cases of violations of the law in the process of public procurement. In particular, anti-competitive cartel agreements are agreements that limit competition in commodity or financial markets, strike at its roots and significantly weaken competition. The prevention of anti-competitive actions in tenders is a crucial aspect of competition legislation, which ensures fair competition and protects the interests of state authorities and management bodies, as well as business entities. This article discusses the issues of identifying violations of the law in the field of public procurement and taking legal measures to prevent them.

Key words: *tender, horizontal, vertical, exemption from liability, cartel agreements, illusion of competition, collusion, written, oral, business entities, financial sanctions.*

KIRISH

Davlat xaridlarining ahamiyati davlatning hozirgi vaqtda tovarlar va xizmatlarning eng yirik iste'molchisi ekanligi bilan belgilanadi. Ta'lim muassasalari, kasalxonalar, ko'priklar va yo'llarni qurish, ta'mirlash, rekonstruksiya qilish va jihozlash, shu va shunga o'xshash sohalardagi muhim iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa vazifalar davlat tomonidan davlat xaridlari orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston kabi iqtisodiyotda yirik davlat ulushiga ega bo'lgan mamlakatlar xususiy sektorni moliyalashtirishda davlat xaridlari muhim manbai hisoblanadi.

Hisob palatasining hisobotiga ko‘ra, ajratilgan mablag‘larning samarali va maqsadli ishlatilganligi, bajarilgan qurilish-ta‘mirlash ishlarining sifati bo‘yicha davlat xaridlarining qonuniyligi yuzasidan jami 677,6 mlrd so‘mlik xato va kamchiliklar hamda tender savdolarida 3,5 trln so‘mlik qonun buzilishi holatlariga yo‘l qo‘yilgan.¹ Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining hisobotiga ko‘ra esa, 2021 yilda davlat xaridlari bo‘yicha 452 ta tender savdolarida 145,3 mlrd so‘m miqdorida qonun hujjatlarining buzilish holatlari aniqlangan.² Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi davlat buyurtmachilari tomonidan amalga oshirilgan xaridlar bo‘yicha 2023-yil sentabr oyi monitoringi natijalariga ko‘ra, ayrim davlat buyurtmachilari 15 ta holatda jami 13,7 mlrd so‘mlik davlat xaridlarini amalga oshirishda bir qator qonunbuzilishi holatlariga yo‘l qo‘ygan.

Xususan, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi (raqobat va xolislik prinsipi), 14-moddasi (manfaatlar to‘qnashuvi), 20-moddasi (xarid komissiyasining huquq va majburiyatlari), 42-moddasi (Ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatish shartlari) va 46-moddasi (davlat xaridlari jarayonidagi cheklovlar) hamda «Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida»gi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlangan nizomning bir qator talablari buzilishiga yo‘l qo‘yilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mavzuni yoritishda tizimli huquqiy tahlil, taqqoslash, qiyosiy-huquqiy, induksiya va deduksiya kabi usullar qo‘llanilgan. Shuningdek, mavzuni tahlil etish davomida adabiyotlar tahlilini amalga oshirishda O‘zbekistondagi olimlardan X.Radjapov hamda B.Xodjayevlarning ilmiy ishlari hamda MDH mamlakatlari olimlaridan L.Makaricheva, Gonchara Danila Ivanovichning olib borgan tadqiqotlariga tayanilgan.

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-6000473>. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 29.04.2022 yildagi SQ-531-IV-son qarori.

² <https://anticorruption.uz/uz/item/2022/03/10/agentlikning-2021-jildagi-faoliyati-natizhalariga-bagishlangan-matbuot-anzhumani-bolib-otdi>

NATIJALAR

Tender savdolarida ko‘pincha quyidagi 3 xil ko‘rinishda kartel kelishuvlari bo‘lishi mumkin:

1) Tadbirkorlik subyektlari, masalan, tijorat takliflarini kelishilgan holda taqdim etish yo‘li bilan asossiz yuqori boshlang‘ich maksimal shartnoma narxini belgilash to‘g‘risida o‘zaro kelishib olishadi;

2) Savdo ishtirokchilari auksionlarda (kotirovkalar yoki auksionlarni taqdim etishda) shartnomaning maksimal narxini saqlab qolish uchun til biriktiradilar, navbatma-navbat minimal pasaytirilgan narx takliflarini kiritadilar;

3) Ishtirokchilar, tender oldidan, g‘olibni, masalan, tijorat to‘lovi evaziga yoki yutqazgan tashkilotni subpudratchi qilishga rozi bo‘lganda, aniqroq shartlar bilan takliflarni taqdim etadilar¹.

Shuningdek, raqobatga zid tender savdolarining belgilari mavjud bo‘lib, ularning bo‘lmasligi tender adolatli o‘tganligi hamda ishtirokchi tadbirkorlar xolis raqobat muhitida bellashganligini anglatadi. Ular quyidagilar:

- g‘olibning ketma-ketlik sxemasi mavjudligi;
- mantiqsiz ravishda tender savdosida ishtirok etishdan voz kechish;
- oxirgi daqiqalarda tender g‘olibining o‘z taklifini rad etishi;
- g‘olib tomonidan yutqazgan ishtirokchilar bilan subpudratshartnomasi tuzilishi;
- boshqa hududlar bilan taqqoslaganda doimiy va o‘zgarmas narx darajasi;
- narxning jamoaviy o‘zgarishi yoki o‘sishi;
- yangi a‘zo tenderda ishtirok etayotganda narxlarning birdan pasayib ketishi;
- arizadagi bir xil hisob-kitoblar va bir xil xatolar mavjudligi.

MUHOKAMA

Raqobatga qarshi bitimlarning eng xavfli shakllari narxlarni belgilash, tenderlarda til biriktirish, ishlab chiqarish miqdorini cheklash va bozorni taqsimlashdir. L.S.Makerichovanning “Особенности условий и формы картельного соглашения”

¹ Выпускная квалификационная работа студента 2 курса магистратуры очной формы обучения Гончара Даниила Ивановича. Санкт-Петербург-2018

nomli maqolasida keltirilishicha, quyidagi shartlar bajarilsa, bozor ishtirokchilari o'rtasida "kartel kelishuvi" bor deb hisoblanar ekan:

- 1) kelishuv ishtirokchilarining xohish-istaklari o'rtasida kelishuv mavjudligi isbotlangan bo'lsa;
- 2) kelishuv shunga vakolatli shaxslar tomonidan ifodalangan bo'lsa;
- 3) shartnoma mazmuni juda aniq belgilangan, xususan:
 - a) uning predmeti;
 - b) yuzaga kelishining real imkoniyati mavjud bo'lgan bo'lsa;
 - c) "Raqobat to'g'risida"gi Qonunida belgilangan shaklda (yozma, og'zaki) yoki konklyudent harakatlar tufayli tuzilgan bo'lsa¹.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda shartnomalar huquq va majburiyat keltirib chiqarishda qanchalik ahamiyatli bo'lsa, kartel kelishuvlarni aniqlashda ham bunday kelishuv belgilarining haqiqatda mavjudligini aniqlash ahamiyatli hisoblanadi va bu vakolatli organning vazifasi sirasiga kiradi.

Rossiyada qonun chiqaruvchi kartellarni 5ga bo'lib ko'rsatadi:

- 1) narxlar karteli;
- 2) tenderlardagi kartellar;
- 3) mahsulot bozorini bo'lib olish;
- 4) tovar ishlab chiqarishni qisqartirish yoki to'xtatish;
- 5) muayyan sotuvchilar yoki mijozlar bilan shartnomalar tuzishdan bosh tortish².

Tender savdolaridagi raqobatga zid harakatlar quyidagi ikki xil ko'rinishda bo'lishi mumkin:

- vertikal: buyurtmachi va tender ishtirokchisi o'rtasidagi o'zaro til biriktirish
- gorizontal: tender ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro til biriktirishlar

¹ Макарычева Л. С. Особенности условий и формы картельного соглашения. Молодой учёный. Международный научный журнал. № 11 (301) / 2020

² Выпускная квалификационная работа студента 2 курса магистратуры очной формы обучения Гончара Даниила Ивановича. Санкт-Петербург-2018.

Buyurtmachi va tender ishtirokchisi o'rtasidagi o'zaro til biriktirishiga "Raqobat to'g'risida"gi Qonunning 29-moddasida bir necha shakllari keltirib o'tilgan bo'lib, masalan boshqa ishtirokchi g'olibga aylanishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida savdolarida takliflar bilan ishtirok etish, savdolar ishtirokchilariga asossiz talablar qo'yish, shu jumladan ularning malakasiga nisbatan raqobatni cheklaydigan yoki cheklashga olib kelishi mumkin bo'lgan talablar qo'yish bunga misol bo'lishi mumkin.

Ikkinchi ko'rinishi, ya'ni raqobatchilarning o'zaro til biriktirib olishi ham tender savdolariga zid harakat hisoblanadi. Ular bir tenderda alohida-alohida sifatida ishtirok etadilar, ammo oldindan manfaatli til biriktirib oladilar. Bu til biriktirishda qo'g'irchoq kompaniyalar raqobatchi rolini o'ynashi, ketma-ketlikda g'oliblikka kelishuv o'yinlari kabilar bo'lishi mumkin. Masalan, aytaylik tender savdolarida A, B va V kompaniyalar ishtirok etdi va V kompaniya g'olib bo'ldi. Ular tenderda ishtirok etish chog'ida bergan takliflari orasida ham aslida deyarli hech qanday farq yo'q edi. V kompaniya g'olib bo'lgandan so'ng, tenderda ishtirok etgan A va B kompaniya bilan subpuadrat shartnomasini tuzadi. Ushbu harakatning ahamiyatini ikki xil usulda tahlil qilishimiz mumkin:

Bir tarafdin, Fuqarolik kodeksining 634-moddasiga ko'ra, agar qonunchilikda yoki pudrat shartnomasida ko'rsatilgan ishni shaxsan o'zi bajarish majburiyatlari kelib chiqmasa, pudratchi o'z majburiyatlarining bir qismini bajarish uchun boshqa shaxslar (yordamchi pudratchilar)ni jalb qilishga haqli. Shunday ekan, A va B kompaniyani ishga jalb qilishga V kompaniya haqli edi. Ammo raqobatga zid tender savdolari belgilaridan biri sifatida yuridik adabiyotlarda g'olib bo'lgan ishtirokchining g'olib bo'lmagan ishtirokchilar bilan subpuadrat shartnomasi tuzishi keltirib o'tilgan. Ushbu holatda bunday munosabatlarning raqobatga zid ekanligini keltirib o'tilishiga sabab bizningcha, bunda raqobatga zid bo'lgan "ketma-ket" g'oliblik yoki hammaga birdek "manfaat" keltiradigan kelishuvlar natijasi bo'lishi mumkin. Masalan, bunda bir safar V kompaniya, bir safar A kompaniya, bir safar B kompaniya g'olib bo'lishga

kelishilgan bo‘lishi mumkin. Shu boisdan bunday holatlarda harakatning raqobatga zid yoki zid emasligini isbotlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda raqobatga qarshi bitimlar, ya’ni raqobatga zid ravishda tuzilgan kartel kelishuvlari tovar yoki moliya bozorlarida raqobatni cheklaydigan, uning ildizlariga bolta uradigan va sezilarli ravishda raqobatni zaiflashtiradigan bitimlar hisoblanadi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, raqobatga qarshi bitim tenderlarda raqobatni cheklaydigan yoki cheklashga olib kelishi mumkin bo‘lgan har qanday og‘zaki yoki yozma kelishuvni ham o‘z ichiga oladi. Bir qaraganingizda xuddiki, ular bir-biri bilan raqobatlashayotganday ko‘rinadi. Aslini olib qaraganingizda esa ular “raqobat illuziyasi”ni sodir qilib, raqobat sahnasida o‘zlarining “aktyorlik mahoratlari”ni namoyish qilayotgan bo‘lishadi. Bizning qonunchiligimizda ham raqobatga zid harakatlarning oldini olish uchun qator qoidalar o‘rnatilgan. Misol uchun aytadigan bo‘lsak, “Raqobat to‘g‘risida”gi qonunning 42-moddasida raqobat qonunchiligini buzganlik uchun bir qator moliyaviy sanksiyalar belgilab qo‘yilgan. Ammo, bular raqobatga zid harakatlarning oldini olishga yetarli bo‘lmayotgandek, nazarimizda. Shu sababli raqobat bozorida raqobatga zid bo‘lgan harakatlarning oldini olish uchun yangi g‘oyalar o‘ylab topish hamda qonunchilikka o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish lozim.

Masalan, “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunning 20-moddasi “Raqobatga qarshi kelishuvlar va muvofiqlashtirilgan harakatlar uchun javobgarlikdan ozod qilish” deb nomlanadi. Unga ko‘ra, raqobatga qarshi kelishuv yoki muvofiqlashtirilgan harakat ishtirokchisi bo‘lgan, mazkur kelishuv yoki harakat sodir etilganligi haqida vakolatli davlat organiga birinchi bo‘lib ixtiyoriy ravishda ariza bilan murojaat qilgan jismoniy shaxs, xo‘jalik yurituvchi subyekt, yuridik shaxslar birlashmasi tegishincha ma‘muriy va moliyaviy javobgarlikdan ozod qilinadi. Bu qoidani tender savdolarida ham qo‘llashimiz mumkin albatta. Chunki tender savdolarida ham raqobatga zid harakat deya kartel kelishuvlarni olishimiz mumkin. Agar tender savdolarida kartel kelishuvlar bo‘ladigan bo‘lsa, 20-moddaga ko‘ra, bu haqida xabar berganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinuvchilar ro‘yxati tugal belgilangan. Ya’ni mazkur kelishuv yoki harakat sodir

etilganligi haqida vakolatli davlat organiga birinchi bo‘lib ixtiyoriy ravishda ariza bilan murojaat qilgan jismoniy shaxs, xo‘jalik yurituvchi subyekt, yuridik shaxslar birlashmasi tegishincha ma‘muriy va moliyaviy javobgarlikdan ozod qilinadi. Tender savdolarida bir taraf asosan davlat hokimiyati organlari bo‘ladi. Shunda 20-modda bo‘yicha davlat hokimiyati organi kartel kelishuvi haqida xabar bersa, unda javobgarlikdan ozod bo‘lish huquqi mavjud emasmi yoxud umuman olganda kartel kelishuvlari uchun davlat organi javobgar bo‘lmaydimi?

Qolaversa, bu chorani yanada kengaytirish ham raqobatga zid harakat sodir etilishining oldini olishga ijobiy yordam ko‘rsatishi mumkin. Bizning qonunchiligimizga binoan, raqobatga zid harakatlar sodir etilgandan keyin ixtiyoriy ravishda birinchi bo‘lib aytgan xususiy shaxslar yuz foiz javobgarlikdan ozod etiladi. Boshqa xorijiy mamlakatlar qonunchiligida bu tartib biroz o‘zgacha. Misol uchun, ularda ixtiyoriy ravishda birinchi bo‘lib murojaat qilgan shaxs yuz foiz javobgarlikdan ozod qilinadigan bo‘lsa, ikkinchi yoki uchinchi bo‘lib ariza bilan murojaat qiladigan shaxslar ham tegishli foizlarda javobgarlikdan ozod qilinarkan. Bu tartibni bizning qonunchiligimizga ham olib kirsak, raqobatga zid harakatlarning oldini olishga biroz bo‘lsada, ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

“Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunning 81-moddasida Davlat xaridlari subyektlari va ularning mansabdor shaxslari ushbu Qonunga va boshqa qonunchilik hujjatlariga, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi va shartnoma bo‘yicha o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar lozim darajada bajarilishi uchun javobgar bo‘ladi.

Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi, deb belgilangan. Bundan tashqari Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 175⁸-moddasida ham davlat xaridlarini buzganlik uchun mansabdor shaxslarga nisbatan javobgarlik ham belgilangan. Demak, ular javobgarlikka tortilar ekan, kartel kelishuvlar haqida xabar berganlikdan ular ziyon ko‘rishi mumkin. Bu esa fikrimizcha, kartel kelishuvlarni sir saqlash uchun kuchli urinishlarga olib keladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tender savdolarida raqobatga qarshi harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining hal qiluvchi jihati bo‘lib, halol raqobatni ta‘minlash hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda tadbirkorlik subyektlarining manfaatlarini himoya qiladi.

Shuningdek, davlat xaridlari sohasidagi qonunbuzilish holatlarini aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan huquqiy choralar sifatida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1) fikrimizcha, osonlik bilan kirish mumkin bo‘lgan ma‘lumotlarga ega bo‘lgan ochiq va shaffof tender tartib-qoidalarini o‘rnatish tenderda soxtalashtirishni oldini oladi va adolatli raqobatni ta‘minlaydi;

2) Risklarni baholashning mustahkam mexanizmlarini joriy etish raqobatga qarshi potensial amaliyotlarni erta aniqlashga yordam beradi;

3) Shaxsni ma‘lumot beruvchidan himoya qilish bo‘yicha kuchli dasturlarni o‘rnatish odamlarni mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklar haqida xabar berishga undaydi;

4) Raqobat organlari, davlat xaridlari organlari va korxonalar o‘rtasidagi hamkorlikning kuchayishi bilim almashishni osonlashtirishi va raqobatga qarshi xatti-harakatlarning namunalari aniqlashi mumkin;

5) Xavfsiz elektron tender platformalaridan foydalanish va kuchli kiberxavfsizlik choralari qo‘llash manipulyatsiya xavfini kamaytirishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Raqobat huquqi. Mualliflar jamoasi. Darslik. – T.: TDYU nashriyoti, 2018.
2. Макарычева Л. С. Особенности условий и формы картельного соглашения. Молодой учёный. Международный научный журнал. № 11 (301) / 2020.
3. Выпускная квалификационная работа студента 2 курса магистратуры очной формы обучения Гончара Даниила Ивановича. Санкт-Петербург-2018.
4. X.Radjapov. Davlat xaridlaridagi korrupsiyadan qanday qutulish mumkin? www.gazeta.uz.
5. <https://lex.uz/uz/docs/-6000473>. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 29.04.2022 yildagi SQ-531-IV-son qarori.
6. <https://anticorruption.uz/uz/item/2022/03/10/agentlikning-2021-jildagi-faoliyati-natizhalariga-bagishlangan-matbuot-anzhumani-bolib-otdi>

BOSHLANG‘ICH SINIF JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHISINING PEDAGOGIK FAOLIYATI

Musurmonov Husan, Nizomov Behzod

O‘zbekiston Finlandiya pedagogika instituti

Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasini o‘qituvchisi

Haydarova Yanglish

Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani

Bulung‘ur Pedagogika kolleji ishlab chiqarish ta‘limi

bo‘yicha direktor o‘rinbosari

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf jismoniy tarbiya o‘qituvchisining pedagogik madaniyati, ularning kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, metodik tayyorgarlikni takomillashtirish, kasbiy rivojlantirish vazifalari tizimli va uzviy amalga oshirishlari borasida kerakli tavsiyalar berilgan.

***Kalit so‘z:** boshlang‘ich sinf, ta‘lim, pedagogik-psixologik, o‘qituvchi, jismoniy tarbiya, metodik, kasb, takomillashtirish, shaxsiy rivojlanish, ta‘lim-tarbiya, ta‘lim muassasa.*

Respublikamiz mustaqil davlat sifatida demokratik jamiyat qurish, dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan ekan, bu xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi oldiga ham muayyan vazifalar qo‘yadi. Mazkur vazifalar umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish bilan belgilanadi.

O'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi ularning kasbiy faoliyatga doir bilimlar, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, o'z-o'zini rivojlantirish kabi asosiy kasbiy faoliyat sohalarida aks etadi. Bu esa o'z navbatida, o'qituvchining o'z fanini o'qitishga doir bilimlarni mukammal bilishi va harakatga keltirishi, ta'lim jarayonini loyihalash, tashkil qilish va baholash uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni egallashi, shuningdek, o'qitish va tarbiyalash jarayonini ta'lim sohasidagi innovatsion ilmiy yutuqlar, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida intensiv tashkil etish, uzluksiz va tizimli o'z-o'zini rivojlantirishni talab etadi.

